



PROFILAKTIKA INSPEKTORINING PROTSESSUAL MAJBURLOV CHORALARINI QO‘LLASH FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH: O‘ZBEKISTONDA JAMOAT XAVFSIZLIGINING HUQUQIY VA RAQAMLI ASOSLARI

To‘lashboyeva Donoxon Baxtiyor qizi

O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi 3-o‘quv kursi 313-guruh kursanti

Nigmatov Sherzod Nimatjonovich

O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi Davlat-huquqiy fanlar va inson huquqlarini ta‘minlash kafedrasida o‘qituvchisi, mayor

Annotatsiya: Mazkur ilmiy maqola O‘zbekiston Respublikasida profilaktika inspektorining protsessual majburlov choralari qo‘llash faoliyatini takomillashtirish masalalariga bag‘ishlangan. Tadqiqotda ma‘muriy va jinoiy majburlov choralari huquqiy asoslari, profilaktika inspektorining vakolatlari, ularning amaliy qo‘llanishi hamda jamoat xavfsizligini ta‘minlashdagi roli tahlil qilinadi. Maqolada O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (27–31-moddalar), ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeks (7, 258, 281-moddalar), Jinoyat-protsessual kodeksi (213–243-moddalar), “Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida”gi qonun (29–41-moddalar) hamda Prezidentning 2021-yil 29-noyabrdagi PF-27-son Farmoni (1-ilova Jamoat xavfsizligi konsepsiyasi, 2-ilova 2022–2025 yillar Strategiyasi hamda 4-ilova Ichki ishlar organlarining profilaktika inspektorlari zimmasiga yuklatilgan vazifalar ro‘yxati) kabi normativ-huquqiy hujjatlar asosida inspektor faoliyatining qonuniylik, mutanosiblik va insonparvarlik prinsiplariga muvofiqligi ko‘rsatib beriladi.

Kalit so‘zlar: Profilaktika inspektori, protsessual majburlov choralari, ma‘muriy huquqbuzarlik, jamoat xavfsizligi, raqamli nazorat, inson huquqlari, qonun ustuvorligi.

Jamoat xavfsizligini ta‘minlash, huquqbuzarliklarning oldini olish va fuqarolar huquqlarini himoya qilish O‘zbekiston Respublikasining ustuvor vazifalaridan biridir. Ushbu maqsadlarga erishishda ma‘muriy va jinoiy majburlov choralari muhim ahamiyatga ega bo‘lib, ular qonun ustuvorligi, adolat va inson qadr-qimmatining yuqori darajada himoya qilinishini ta‘minlaydi. Profilaktika inspektori ichki ishlar organlari tizimidagi asosiy ijrochi sifatida ma‘muriy huquqbuzarliklarning oldini olish, protsessual majburlov choralari qo‘llash va jamoat tartibini saqlashda muhim rol o‘ynaydi. Mazkur faoliyat O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (27-31-moddalar), Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeks, Jinoyat-protsessual kodeksi, “Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida”gi qonun hamda Prezidentning 2021-yil 29-noyabrdagi PF-27-son Farmoni bilan tasdiqlangan 1-ilova “Jamoat xavfsizligi konsepsiyasi”, 2-ilova “2022–2025 yillar Strategiyasi” hamda 4-ilova “Ichki ishlar organlarining profilaktika inspektorlari zimmasiga yuklatilgan vazifalar ro‘yxati” kabilar asosida amalga oshiriladi. Ushbu normativ-huquqiy hujjatlar profilaktika inspektorining vakolatlarini aniqlashtirib, faoliyatini mustaqil, shaffof va raqamli texnologiyalarga asoslangan tizimga o‘tkazishni ko‘zda tutadi. Mavzuning



dolzarbliigi profilaktika inspektori faoliyatining samaradorligi jamoat xavfsizligi darajasi, retsiv jinoyatlarning kamayishi va fuqarolarning huquqiy himoyasi bilan bevosita bog‘liqligidadir. Tadqiqot maqsadi – profilaktika inspektorining protsessual majburlov choralari qo‘llash faoliyatining huquqiy asoslarini tahlil qilish va uni takomillashtirish yo‘nalishlarini belgilashdan iborat.

Ma‘muriy va jinoiy majburlov choralari — bu davlatning jamoat tartibini saqlash, huquqbuzarliklarning oldini olish va fuqarolar huquqlarini himoya qilish uchun qo‘llaydigan qonuniy kuch ishlatish mexanizmlaridir. Ularning ahamiyati huquq ustuvorligi, adolat va jamiyat xavfsizligini ta‘minlashdadir. O‘zbekistonda bu choralari Konstitutsiya (27–31-moddalar), Jinoyat kodeksi, Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksi va normativ huquqiy hujjatlar va hozirgi kundagi hukumatdagi huquqiy islohotlar bilan tartibga solinadi. Davlatimizda qonun ustuvorligini ta‘minlashda inson qadr-qimmatining yuqori darajaga qo‘yilishi muhim o‘rin egallaydi. Inson manfaatlarini himoya qilish, mazkur faoliyatni ayniqsa jinoyat protsessi sohasida amalga oshirish asosiy e‘tibor talab qiladigan omil hisoblanadi. Shu asnoda, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 27-moddasida, har kim erkinlik va shaxsiy daxlsizlik huquqiga ega. Hech kim qonunga asoslanmagan holda hibsga olinishi, ushlab turilishi, qamoqqa olinishi, qamoqda saqlanishi yoki uning ozodligi boshqacha tarzda cheklanishi mumkin emasligi belgilab qo‘yilgan. “Habeas korpus” institutining O‘zbekiston Respublikasi jinoyat protsessiga bosqichma-bosqich joriy qilinishi esa sudga qadar ish yuritish bosqichida fuqarolarning Konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlab qo‘yilgan huquq va erkinliklari daxlsizligini, ulardan sud qarorisiz mahrum qilishga yoki ularni cheklab qo‘yishga hech kim haqli emasligini mustahkamlovchi konstitutsiyaviy prinsipni to‘liq amalga oshirish imkonini beradi. U modda ma‘muriy va jinoiy majburlovning eng birinchi bosqichi – ushlab turish (Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksiga muvofiq ma‘muriy yo‘l bilan ushlab turish yoki jinoyat protsessual kodeksi muvofiq ushlab turish) uchun asosiy himoya mexanizmini belgilaydi. Huquqni muhofaza qiluvchi organlarning mansabdor shaxslari shaxsni erkinlikdan mahrum qilishdan oldin uning huquqlarini ochiq tushuntirishi shart. Agar bu tartib buzilsa, ushlab turish noqonuniy deb topiladi va shaxs ozod qilinishi, jarima yoki kompensatsiya talab qilinishi mumkin. Bu majburlov choralari qonuniyligi va shaffofligini ta‘minlaydi. Ma‘muriy (ma‘muriy oldini olish (ogohlantirish) choralari, ma‘muriy cheklash choralari hamda ma‘muriy jazo choralari) va jinoiy (ushlab turish, ehtiyot choralari, lavozimidan chetlashtirish, majburiy keltirish va boshqalar) majburlov choralari huquqni muhofaza qiluvchi organning mansabdor shaxslari yoki sud orqali amalga oshiriladi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi ma‘muriy va jinoiy majburlov choralari cheklash, shaffoflashtirish va odillashtirishning asosiy kafolatidir. U davlatning kuch ishlatish huquqini fuqaro huquqlari bilan mutanosib qiladi. Bu moddalar Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksi, Jinoyat-protsessual kodeksi va boshqa qonunlarning konstitutsiyaviy asosi hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyev 2018-yil 8-yanvar kuni «Ma‘muriy tartib-taomillar to‘g‘risida»gi qonunni imzoladi. "Ma‘muriy ish yuritishda jismoniy va yuridik shaxslarga ko‘rsatiladigan ta‘sir choralari ma‘muriy organ

tomonidan ko'zlangan qonuniy maqsadga erishish uchun mos va yetarli bo'lishi hamda manfaatdor shaxslarga imkon qadar qiyinchilik tug'dirmasligi kerak". Bu bevosita ma'muriy (ma'muriy oldini olish(ogohlantirish) choralari, ma'muriy cheklash choralari hamda ma'muriy jazo choralari) va jinoiy (ushlab turish, ehtiyot choralari, lavozimidan chetlashtirish, majburiy keltirish va boshqalar) majburlov uchun ham qo'llaniladi. Prezidentimiz buni "Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida"gi qonunni imzolash orqali qo'llab-quvvatladi. Shuningdek, mazkur qonun bilan mutanosiblik prinsipini joriy etish ilgari surilgan.

Davlat hokimiyati organlarining faoliyati turli usullarni qo'llash orqali amalga oshiriladi, ulardan biri ma'muriy majburlov usulidir. Ma'muriy-huquqiy normalarga asosan, ma'muriy majburlov usuli inson va fuqaroning huquq va erkinliklarini samarali himoya qilishga, davlatda qonuniylik va huquq tartibini ta'minlashga imkon beradi. Jinoiy majburlov choralari ahamiyati esa (jinoiy kodeksi, jinoiy-protsessual kodeksi asosida) quyidagilarda nomoyon bo'ladi:

-jamiyat xavfsizligini ta'minlash muhim ahamiyat kasb etib, jinoyatlar (o'g'rilik, qasddan odam o'ldirish,) jamiyatga jiddiy xavf tug'diradi. Majburlov choralari (ushlab turish, ehtiyot choralari) jinoyatchini jamiyatdan vaqtincha yoki doimiy izolyatsiya qilib, qayta jinoyat sodir etilishini oldini oladi.

-adolatni tiklashda jabrlanuvchining huquqlarini himoya qiladi (kompensatsiya, jazo), jinoyatchiga mutanosib jazo berilishi orqali "ayb uchun javobgarlik" prinsipi amalga oshiriladi.

-oldini olish (preventiv) funktsiya jazo qo'llash tahdidi bilan boshqa fuqarolarni jinoyat sodir etishdan to'xtatadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 29-noyabrdagi PF-27-son Farmoni bilan tasdiqlangan "Jamoat xavfsizligi konsepsiyasi (1-ilova)" va "2022–2025 yillarda jamoat xavfsizligini ta'minlash tizimini rivojlantirish strategiyasi (2-ilova)" jamoat xavfsizligini ta'minlashning sifat jihatidan yangi tizimini joriy etishga qaratilgan. Ushbu hujjatlar profilaktika inspektorining protsessual majburlov choralari (ma'muriy bayonnoma tuzish, ogohlantirish, jarima, ma'muriy qamoq, transport vositasini boshqarish huquqidan mahrum qilish, cheklovlar o'rnatish, elektron nazorat, majburiy jamoat ishlari va boshqalar) qo'llash faoliyatini qonuniy, uslubiy, ilmiy, tashkiliy va raqamlashtirish jihatdan mustahkamlaydi. Bu esa profilaktika inspektorlarining rolini mustaqil, samarali va qonun ustuvorligiga asoslangan subyektga aylantiradi. Hozirda huquqbuzarliklarga qarshi kurashda profilaktika inspektorining ishi raqamlar, natijalar va aholi fikri asosida baholanadigan bo'ldi. Bu degani —"qancha ish qilding?" emas, balki "natija qanday bo'ldi?" degan savol muhim ligini bildiradi.

Ichki ishlar organlari to'g'risidagi qonunga ko'ra Ichki ishlar organlarining tayanch punktlari (15-modda) va mahalla huquq-tartibot maskanlari (151-modda) O'zbekistondagi ma'muriy jazo tizimining amaliy maydoni hisoblanadi. Ular profilaktika inspektorining faoliyati orqali Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 22-moddasidagi maqsadni — ya'ni huquqbuzarni tarbiyalash, qayta huquqbuzarlikning oldini olish, — bevosita mahallada amalga oshiradi. Bu ikki tuzilma bir-birini to'ldirib, davlat va jamoat

hamkorligining yangi bosqichini yaratadi. Tayanch punkt tuman va shahar ichki ishlar boshqarmalarining quyi bo‘g‘ini bo‘lib, qishloq, ovul va mahallalarda doimiy hozirlikda ishlaydi. Mahalla huquq-tartibot maskani — bu profilaktika inspektori, probatsiya inspektori, patrul xizmati va jamoat birlashgan hamkorlik platformasi. Unda profilaktika katta inspektori va inspektori doimiy ishlaydi, probatsiya inspektori esa jazoni ijro etishni ta‘minlaydi. Xotin-qizlar masalalari inspektori oilaviy zo‘ravonlikdan jabrlangan xotin-qizlar bilan samarali profilaktik chora-tadbirlarni amalga oshiradi.

Ma‘muriy majburiy choralar — ma‘muriy organ tomonidan ma‘muriy boshqaruv jarayonida qonunga muvofiq ravishda noqonuniy xatti-harakatlarni to‘xtatish, dalillarning yo‘q qilinishining oldini olish, xavf-xatarning oldini olish va xavfning kengayishini nazorat qilish maqsadida fuqarolarning shaxsiy erkinligini vaqtinchalik cheklash yoki fuqarolar, yuridik shaxslar yoki boshqa tashkilotlarning mulkini vaqtinchalik nazoratga olish xatti-harakatidir» deb belgilangan . Ma‘muriy protsessual majburlov choralari Ichki ishlar organlari faoliyatining jamoat tartibini saqlash va havfsizligini ta‘minlash jarayonida keng ko‘lamda qo‘llaniladi. Ma‘muriy protsessual majburlov choralari 3 ta turga bo‘linadi: 1. Oldini olish(ogohlantirish) choralari: 2. Ma‘muriy cheklash choralari: 3. Ma‘muriy jazo choralari. Ma‘muriy protsessual majburlov chorasi — bu O‘zbekiston Respublikasi Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksi (MJtK) doirasida, ma‘muriy huquqbuzarlik to‘g‘risidagi ishni yuritish jarayonida qo‘llaniladigan vaqtinchalik, majburiy ta‘sir choralari bo‘lib, ular huquqbuzarlikning oldini olish, aybdorning hozir bo‘lishini ta‘minlash, dalillarning yo‘qolishining oldini olish, ishning to‘g‘ri va to‘liq ko‘rib chiqilishini ta‘minlash maqsadida qo‘llaniladi. Ma‘muriy protsessual majburlov chorasi — bu ishni yuritish jarayonidagi vaqtincha majburiy chora bo‘lib, aybdorlik aniqlanguniga qadar qo‘llaniladi. U profilaktika inspektori tomonidan MJtK 258-moddaga muvofiq, bayonnoma bilan rasmiylashtiriladi. Ma‘muriy jazoning asosiy maqsadi — huquqbuzarni tarbiyalash va yangi huquqbuzarliklarning oldini olish. Profilaktika inspektori huquqbuzarlik sodir etgan shaxs bilan individual profilaktik ish olib boradi, ularning shaxsi, mulkiy axvoli, oilaviy sharoitlarini o‘rganadi.

O‘zbekiston Respublikasining “Ichki ishlar organlari to‘g‘risida”gi Qonuni 4-bob 18–20-moddalari profilaktika inspektori faoliyatining huquqiy asosini tashkil etadi. Ushbu moddalar inspektorga shaxslarni ushlab turish, hududni to‘sib qo‘yish va transportdan majburiy foydalanish kabi majburlov choralarni qo‘llash huquqini beradi. Bu esa mahalla xavfsizligini ta‘minlash, jinoyat va huquqbuzarliklarning oldini olish, retsidivni kamaytirish hamda fuqarolar huquqlarini himoya qilishda muhim ahamiyatga ega. Qonunning 18-moddasida shaxslarni ushlab turish asoslari va tartibi belgilangan bo‘lib, profilaktika inspektori uchun ahamiyati shundaki, bu modda profilaktika inspektoriga hududiy jamoat tartibini saqlashda faol ishtirok etish imkonini beradi. Masalan aniq yashash joyi yo‘q shaxslarni ushlab turib, keyinchalik reabilitatsiya markaziga joylashtirish — bu ko‘cha jinoyatchiligi va ijtimoiy xavfning oldini olish demakdir. Ma‘muriy huquqbuzarlik sodir etganlarni (masalan, mayda bezorilik) ushlab turish — hududdagi profilaktik nazoratni kuchaytirish va huquqbuzarliklarni oldini olishga xizmat qiladi.

O‘zbekiston Respublikasining Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksi asosida profilaktika inspektori ma‘muriy huquqbuzarliklarning oldini olish va profilaktika choralari ko‘rsatish bilan shug‘ullanadi. Kodeksda "profilaktika inspektori" tushunchasiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta‘rif berilmagan bo‘lsa-da, uning faoliyati 7-modda (huquqbuzarliklarning oldini olish) va umumiy protsessual qoidalar (8, 23, 29-moddalar) doirasida tartibga solinadi. Protsessual majburlov choralari – bu huquqbuzarlikning oldini olish va to‘liq tekshiruv uchun vaqtincha qo‘llaniladigan choralari (masalan, ushlab turish, qamoqqa olish, jarima) ular faqat qonunda belgilangan tartibda va organlarning vakolatlari doirasida amalga oshiriladi. Kodeksning 7-moddasiga ko‘ra Profilaktika inspektori mahalliy davlat hokimiyati organlari, ichki ishlar organlari va bolalar masalalari bo‘yicha komissiyalar bilan hamkorlikda huquqbuzarliklarning oldini olishni ta‘minlaydi. Uning faoliyati qonuniylik, huquq-tartibot va fuqarolar xavfsizligini muvofiqlashtirishga yo‘naltirilgan. Masalan, profilaktika inspektor huquqbuzarlikka moyil shaxslar bilan profilaktika suhbatlari o‘tkazadi, holatlarni kuzatib boradi va takroriy holatlarning oldini oladi. Bu bosqichda majburlov choralari to‘g‘ridan-to‘g‘ri qo‘llanilmaydi, lekin profilaktika inspektor huquqbuzarlik shubhasi paydo bo‘lganda, ishni yuritishni boshlash uchun asosiy ma‘lumotlar yig‘adi (8-modda). Majburlov choralari faqat huquqbuzarlik aniqlangandan so‘ng (23-modda) qo‘llaniladi. Amaliy misol: Voyaga yetmaganlar orasidagi huquqbuzarliklarning oldini olishda inspektor bolalar masalalari komissiyasi bilan birgalikda tushuntirish choralari ko‘radi, bu esa keyingi bosqichda majburlov choralari zaruratini kamaytiradi.

O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 26-28-boblari (213–243-moddalar) protsessual majburlov choralari (ushlab turish, qamoqqa olish, uy qamog‘i, garov, munosib xulq atvorda bo‘lish to‘g‘risida tilxat, shaxsiy kafillik va boshqalar)ning qo‘llanilishini tartibga soladi. Ushbu choralari jinoyat protsessi doirasida, ya‘ni jinoyat ishi qo‘zg‘atilgandan keyin gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchiga nisbatan qo‘llaniladi. Istisno tariqasidan jinoyat ishi qo‘zg‘atilmagan oldin ichki ishlar organining, tergovga qadar tekshiruvni, surishtiruvni yoki dastlabki tergovni amalga oshiruvchi boshqa organning xodimi, shuningdek muomalaga layoqatli har qanday shaxs Jinoyat protsessual kodeksining 221-moddasida ko‘rsatilgan asoslar mavjud bo‘lgan taqdirda, jinoyat sodir etgan shaxsni ushlab turish va yaqin oradagi ichki ishlar organiga yoki huquqni muhofaza qiluvchi boshqa organga olib kelishga haqlidir. Bu choralari ma‘muriy majburlov choralari (ma‘muriy bayonnoma, ogohlantirish, jarima, ma‘muriy qamoq, transport vositasini boshqarish huquqidan mahrum qilish, cheklovlar o‘rnatish, elektron nazorat, majburiy jamoat ishlari)dan maqsad, asos, subyekt, muddat, tartib va huquqiy oqibatlar jihatidan tubdan farq qiladi. Profilaktika inspektori ushbu protsessual choralarni faqat qonunda belgilangan hollarda (masalan, 221, 224-moddalar bo‘yicha ushlab turish) qo‘llashga haqli bo‘lib, bu uning faoliyatini qonuniylik, mutanosiblik va inson huquqlarini himoya qilish prinsiplariga asoslantiradi. Profilaktika inspektorining jinoiy protsessual majburlov choralari qo‘llashdagi roli va cheklovlari ahamiyati shundaki uning faqat ushlab turishda vakolatida bo‘lib, JPK 222-moddasiga ko‘ra profilaktika inspektori (Ichki ishlar organi xodimi sifatida) jinoyat ustida yoki yaqqol izlar topilganda (221-modda) shaxsni ushlab,

yaqin Ichki ishlar organiga olib kelishga haqli. Shuningdek, protsessual tartibga qat'iy rioya qilishda ham JPK 224-moddasi tartibida o'zini tanishtirish, hujjat ko'rsatish, gumonni ma'lum qilishi huquqlarni (advokat, qarindoshlarga xabar, ko'rsatuvdan voz kechish) tushuntirishi, videoyozuvga olishi (majburiy, istisno hollarda — keyinchalik), bayonnoma tuzishi (225-modda) mumkin, farqi shundaki, ma'muriy bayonnomada videoyozuv talab qilinmaydi, himoyachi ishtiroki shart emas. Jinoyat-protsessual majburlov deganda, jinoyat protsessining vazifalari samarali ro'yobga chiqarilishini ta'minlash, odil sudlovni amalga oshirishga tahdid tug'diruvchi noqonuniy qilmishlarning oldini olish maqsadida, qonunda belgilangan asoslar mavjud bo'lganda va belgilangan tartibda vakolatli subyektlar tomonidan jinoyat protsessining ishtirokchilariga nisbatan qo'llaniladigan shaxsiy, mulkiy va tashkiliy tavsifdagi huquqiy cheklovlar ko'rinishidagi davlatning ta'sir choralari yig'indisi tushuniladi.

O'zbekiston Respublikasining "Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida"gi qonun profilaktika inspektorining protsessual majburlov choralari qo'llash faoliyatini takomillashtirishda tutgan o'rni va ahamiyati shundaki, (O'RQ-371-son, 14.05.2014-yil) huquqbuzarliklarning oldini olish va profilaktikasining tizimli tashkil etilishini ta'minlaydigan muhim hujjat bo'lib, unda profilaktika faoliyatining turlari, organlari va chora-tadbirlari aniq belgilangan. Ushbu qonunda "profilaktika inspektori" termini to'g'ridan-to'g'ri ishlatilmasa-da, ichki ishlar organlarining vakolatlari (10-modda) va yakka tartibdagi profilaktika chora-tadbirlari (29, 40, 41-moddalar) doirasida profilaktik hisobga olish, ma'muriy nazorat va boshqa protsessual majburlov choralari qo'llash bilan shug'ullanuvchi mas'ul shaxslar (ichki ishlar organlarining profilaktika bo'linmalari xodimlari, jumladan, profilaktika inspektorlari) nazarda tutilgan. Qonunning ushbu elementlari profilaktika inspektorining rolini amalga oshirish asosi sifatida xizmat qiladi.

Profilaktika inspektori mazkur qonun doirasida ichki ishlar organlari tizimidagi asosiy ijrochi sifatida faoliyat yuritadi. Uning o'rni quyidagilar bilan ifodalanadi:

-yakka tartibdagi profilaktikani tashkil etish: 28-moddaga ko'ra, yakka tartibdagi profilaktika huquqbuzarlik sodir etishga moyil shaxslar (ilgari sudlanganlar, voyaga yetmaganlar, hisobda turganlar) bilan individual ishlashni o'z ichiga oladi. Profilaktika inspektori profilaktik suhbatlar (30-modda), rasmiy ogohlantirishlar (31-modda) va ijtimoiy reabilitatsiya choralari (33-modda) amalga oshiradi. Qonunning 29-moddasida belgilangan chora-tadbirlardan (profilaktik hisobga olish, majburiy davolanish, ma'muriy nazorat) profilaktika inspektori to'g'ridan-to'g'ri ishtirok etadi.

-profilaktik hisobga olish (34-39-moddalar): Profilaktika inspektori shaxsni profilaktik hisobga qo'yish (36-modda), muddatni belgilash va chiqarish

(38-39-moddalar) tartibini boshqaradi. Bu chora huquqbuzarlikning oldini olish uchun majburiy nazoratni ta'minlaydi.

-majburiy davolanish (40-modda): Profilaktika inspektor tibbiy ekspertiza asosida shaxsni davolanish muassasasiga yuborish to'g'risida qaror chiqarishda ishtirok etadi.

-ma'muriy nazorat (41-modda): inspektor hisobda turgan shaxslarning joyi, ish joyi va harakatlarini nazorat qiladi, bu protsessual majburlovning eng muhim shaklidir.

Mazkur qonun profilaktika inspektorining faoliyatini protsessual majburlov choralarining samarali va insonparvarlik asosida qo‘llanishi orqali takomillashtirishda muhim ahamiyatga ega. Bundan tashqari profilaktika inspektorini protsessual majburlov choralarining "himoyachi" roliga aylantirib, ularning qo‘llanilish faoliyatini tizimli, insonparvarlik va samarali qilish orqali takomillashtiradi. Bu qonunning amalga oshirilishi huquqbuzarliklarning oldini olish tizimining mustahkamlashuvini ta’minlaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 29-noyabrdagi PF-27-son Farmoni jamoat xavfsizligi tizimini tubdan takomillashtirishga qaratilgan bo‘lib, profilaktika inspektorining rolini kuchaytirish va uning ma’muriy protsessual majburlov choralari (ma’muriy huquqbuzarlik to‘g‘risidagi ishlarda qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan ma’muriy majburlovlar: ogohlantirish, jarima, ma’muriy qamoq, transport vositasini boshqarish huquqidan mahrum qilish va boshqalar) faoliyatidagi ahamiyati muhim hisoblanadi. Farmonning 4-ilovasiga muvofiq yagona vazifalar ro‘yxati tasdiqlandi. Bu ro‘yxat profilaktika inspektorining ma’muriy protsessual majburlov choralarini qo‘llash vakolatini aniq belgilaydi. Bundan tashqari farmonda bevosita profilaktika inspektori faoliyatiga asossiz aralashish taqiqlandi, profilaktika inspektori qonun doirasida mustaqil ravishda ma’muriy majburlov choralarini qo‘llashga haqli bo‘ldi. Farmonda profilaktika inspektori ma’muriy protsessual majburlov choralarini qo‘llashning quyidagi yo‘nalishlari kuchaytirildi:

- huquqbuzarliklar profilaktikasi yo‘nalishida ma’muriy bayonnoma tuzish, ogohlantirish, jarima kabi protsessual majburlov choralari;

- probatsiya nazorati yo‘nalishida cheklovlar o‘rnatish, elektron braslet, majburiy ish kabi protsessual majburlov choralari;

- yo‘l harakati xavfsizligi yo‘nalishida transportni to‘xtatish, transport vositalaridan foydalanishni taqiqlab qo‘yish, haydovchilik guvohnomasini olib qo‘yish kabi protsessual majburlov choralari;

- jamoat tartibi yo‘nalishida ma’muriy qamoq (15 sutkagacha) kabi protsessual majburlov choralari;

Umumiy olganda mazkur farmon doirasida profilaktika inspektori endi ma’muriy protsessual majburlov choralarini qo‘llashda qonun ustuvorligini ta’minlovchi, mustaqil va samarali faoliyat yurituvchi subyektga aylandi. Bu esa jinoyatchilikning oldini olish, jamoat tartibini saqlash va fuqarolar xavfsizligini oshirishda tub burilish yasadi. Profilaktika inspektorining ma’muriy protsessual majburlov choralaridagi yangi roli shundaki farmon asosida vazifalar aniq emasligi, yagona ro‘yxatning mavjud emasligi, xodimlarning yuridik bilimi yetarli emasligi nazorat yo‘qligi, idoralararo hamkorlik yo‘qligi kabi kamchiliklar bartaraf etilib, hisobdorlik hamda to‘g‘ridan-to‘g‘ri sohaviy xizmatlar bilan hamkorligi yo‘lga qo‘yildi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 29-noyabrdagi PF-27-son Farmoniga 1- va 2-illovalari (“Jamoat xavfsizligi konsepsiyasi” va “2022–2025 yillar Strategiyasi”) asosida profilaktika inspektorining ma’muriy protsessual majburlov choralarini qo‘llash faoliyatidagi yana bir ahamiyatli jihati strategiyaning 7-bandida 200 dan ortiq normativ-huquqiy hujjatni birlashtiruvchi yagona qonun loyihasi ishlab chiqilishi ko‘zda tutilgan bo‘lib, bu profilaktika inspektori vakolatlarining ziddiyatsiz va aniq



bo'lishini ta'minlaydi. Shuningdek, 8-bandda majburlov choralarining asosliliigi va samarasini baholash uchun mezonlar joriy qilinadi. Konsepsiyaning 1-bobi va Strategiyaning 2-bobi profilaktika inspektori vakolatlarini aniq belgilaydi:

-profilaktik hisob va ma'muriy nazorat sohasida cheklovlar o'rnatish, majburiyatlar yuklash va nazorat qilish (Strategiya, 10, 38, 79-bandlar);

-probatsiya nazoratida elektron brasletlar, GPS qurilmalari va majburiy ish choralarini qo'llash (Strategiya, 10, 97, 98-bandlar);

-jamoat tartibi buzilishida ma'muriy qamoq (15 sutkagacha) va jamoat ishlarini tayinlash (Strategiya, 16, 55-bandlar);

-yo'l harakati xavfsizligida guvohnomani olib qo'yish, jarima va uzoq muddatli mahrum qilish (Strategiya, 11-12, 22-24-bandlar).

Strategiyaning 3-bobi profilaktika inspektori faoliyatining amaliy algoritmlarini belgilaydi:

-“Harakatlar protokoli” (38-band): profilaktik hisob, ma'muriy va probatsiya nazoratidagi shaxslarga nisbatan cheklovlarni nazorat qilish, tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish va ijtimoiy moslashtirishning batafsil tartibi;

-“Shahar inspektori” va “Qishloq inspektori” modellari (42-band): hudud xususiyatlariga moslashtirilgan faoliyat, protsessual majburlovni tezkor va samarali qo'llash imkoniyati;

-Elektron nazorat tizimlari (95, 97, 98-bandlar): barmoq izi, elektron braslet va GPS qurilmalari orqali majburlov choralarining ijrosini

100 foiz nazorat qilish;

-Ma'muriy ish yurituvni elektronlashtirish (94-band): inspektor qog'ozsiz, tezkor va shaffof ravishda bayonnoma tuzadi, jarima va cheklovlarni onlayn qo'llaydi;

Strategiyaning 7-bobi inspektor faoliyatini raqamlashtirishni ko'zda tutadi, unga ko'ra:

-“E-jamoat havfsizligi” yagona tizimi (92-band): barcha majburlov choralari yagona platformada ro'yxatga olinadi;

-90 foiz elektron hujjat aylanmasi (91-band): inson omilini minimallashtirib, qonunbuzarlikka murossasizlikni ta'minlaydi;

-onlayn ma'muriy ish (94-band): jazo muqarrarligini tezkor amalga oshirish. Umumiy olinganda Konsepsiya va Strategiya profilaktika inspektorini ma'muriy protsessual majburlov choralarini qo'llashda qonun ustuvorligini ta'minlovchi, mustaqil va samarali faoliyat yurituvchi subyektga aylantiradi. Bu jinoyatchilikning oldini olish, jamoat tartibini saqlash va fuqarolar xavfsizligini oshirishda tub burilish yasab, inspektor faoliyatini shaffof, ilmiy asoslangan va raqamli texnologiyalarga tayangan tizimga o'tkazadi. Takomillashtirish yo'nalishlari (umumiy ilmiy-huquqiy tavsiyalar) sifatida quyidagilarda namoyon bo'ladi:

1. Normativ-huquqiy bazani takomillashtirish yo'nalishida:

-amaldagi qonun va qarorlardagi mavhum yoki bir xil talqinga sabab bo'ladigan normalarni aniqlashtirish;

-ma'muriy javobgarlik me'yorlarini zamonaviy ijtimoiy xatarlarga moslash;

-profilaktika faoliyati bo'yicha alohida kompleks qonun loyihasini ishlab chiqish.

2. Profilaktika tizimining institutsional asoslarini kuchaytirish yo‘nalishida:
-profilaktika inspektorlari, mahalla fuqarolar yig‘ini va ichki ishlar organlari o‘rtasidagi hamkorlikni yagona elektron platforma orqali muvofiqlashtirish;

-davlat va nodavlat tashkilotlarining profilaktika jarayonidagi rolini oshirish.

3. Axborot texnologiyalarini keng joriy etishda:

-“profilaktika elektron reestri”, “huquqbuzarliklar xaritasi” kabi raqamli tizimlarni ishga tushirish;

-soliq, mahalla, sog‘liqni saqlash, ta‘lim tizimi ma‘lumotlarini integratsiya qilgan yagona profilaktika bazasi yaratish.

4. Profilaktika inspektorlari faoliyatini optimallashtirish yo‘nalishida:

-ortiqcha qog‘ozbozlikni qisqartirish va avtomatlashtirish;

-xizmat yuklamasini normativ asosda qayta belgilash;

-tarkibiy tuzilmalar o‘rtasida vazifalarni qayta taqsimlash.

Xulosa o‘rnida shuni ta‘kidlab o‘tishim mumkinki, profilaktika inspektorining protsessual majburlov choralari qo‘llash faoliyati O‘zbekistonda jamoat xavfsizligining mustahkamlanishi, huquqbuzarliklarning oldini olish va inson huquqlarining himoya qilinishining asosiy omilidir. Ushbu faoliyat yuqorida keltirilganidek O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiya, Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeks, Jinoyat-protsessual kodeksi, “Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida”gi qonun (29–41-moddalar) hamda Prezidentning 2021-yil 29-noyabrdagi PF-27-son Farmoni (“Jamoat xavfsizligi konsepsiyasi” va “2022–2025 yillar Strategiyasi”) bilan qat‘iy tartibga solinadi. Natijada profilaktika inspektori faoliyati shaffof, insonparvar, ilmiy asoslangan va raqamli tizimga o‘tkazilib, jamoat tartibi mustahkamlandi, fuqarolar xavfsizligi ta‘minlash va huquqbuzarliklarni oldini olish choralari yanada kuchaytirildi. Kelgusida elektron nazoratni 100 foizga olib chiqish va idoralararo integratsiyani chuqurlashtirish orqali tizimni yanada takomillashtirish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR VA MANBALAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (yangilangan tahriri, 2023-yil 30-aprel). Rasmiy matn: <https://lex.uz/uz/docs/-6445145> Manba: O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi “Lex.uz” milliy huquqiy axborot tizimi.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 29 noyabrdagi PF-27-sonli Farmoni. O‘zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida // Lex.uz. URL: <https://lex.uz/docs/5749291> (murojaat qilingan sanasi: 15.11.2025).

3. Bogiv Ya. S. Administrativnogo zmusheynya u diyalnosti organiv derjavnogo upravlinnya // Naukovi zapiski Lvivskogo universitetu biznesu ta prava. – 2022. – Vip. 32. – № 1. – S. 326–331.

4. Jiang Ming’an. Administrative Law and Administrative Procedural Law [M]. Beijing: Peking University Press, Higher Education Process, 2003.



5. Nimatov Sh. N. va boshqalar. Huquqbuzarliklar profilaktikasida KPI asosida baholash: sub’ektlar faoliyatining integratsiyasi va samaradorligi // Modern education and development. – 2025. – T. 37. – № 2. – S. 214–225.

6. Proetsessual majburlov soralarining ahamiyati // [Jurnal maqolasi]. Journal-web.uz. – 2023. – URL: <https://journal-web.uz/index.php/07/article/view/803/761> (murojaat qilingan sanasi: 15.11.2025).

7. O‘zbekiston Respublikasining “Ichki ishlar organlari to‘g‘risida”gi Qonuni. O‘RQ-407-son, 2016 yil 16 sentabr // Lex.uz. URL: <https://lex.uz/docs/3027843> (murojaat qilingan sanasi: 15.11.2025).

8. O‘zbekiston Respublikasining Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi Kodeksi. 1994 yil 22 sentabr // Lex.uz. URL: <https://lex.uz/docs/97664> (murojaat qilingan sanasi: 15.11.2025).

9. O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi. 1994 yil 22 sentabr // Lex.uz. URL: <https://lex.uz/docs/111460> (murojaat qilingan sanasi: 15.11.2025).

10. O‘zbekiston Respublikasining "Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida"gi Qonuni (O‘RQ-371-son, 14.05.2014)

11. [Lokal fayl: 12070.pdf]. file:///C:/Users/USER/Downloads/12070.pdf (murojaat qilingan sanasi: 15.11.2025).

12. Ichki ishlar organlarining ma‘muriy faoliyati – (Toshkent - 2023) ichki ishlar vazirligi Akademiyasi darslik